

## **BADIY ASARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO’LLANILISHI**

***Ermanova Gulzoda Raxmataliyevna***

*Namangan viloyati Pop tumani*

*Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

*gulzodaermonova3@gmail.com 94 276 71 83*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiy asarlarda frazeologik birliklarning badiy asarlarda qo’llanish xususiyatlari, ifodalagan ma`no-mazmun ifodalar, ularning obrazlilik, milliylik va uslubiy boylikni ta’minlashdagi o`rnini tahlil qilinadi. O‘zbek adabiyotidagi asarlardan keltirilgan parchalar asosida frazeologik birliklarning bajargan vazifalari va badiy ta’sir kuchi ochib beriladi. Frazeologik birliklar badiy asarning estetik qiymati va badiyligini oshirishda muhim vositalardan biri ekanligi haqida to`xtaladi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologizm, frazeologik birliklar, badiy nutq, obrazlilik, xalq og‘zaki ijodi, badiy uslub, stilistik vosita

### **Kirish**

Badiy adabiyot va san`at badiy asar shaklida yashaydi, shunga ko`ra badiy asar adabiyot va san`atning yashash shakli hisoblanadi. Badiy asar – bu til san`atining yuksak namunasi bo‘lib, unda muallif asarda ifodalananayotgan g‘oyasini, ishtirok etayotgan obrazlarning, holat va kechinmalarini estetik badiy vositalar orqali ifodalarydi. Bunday vositalar ichida frazeologik birliklar alohida o‘rin egallaydi. Frzeologik birliklar, ya`ni iboralar-ma`no yaxlitligiga ega bo`lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so`zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko`chma ma`nodagi barqaror birikmalarga fazeologizmlar deyiladi. Frzeologik birliklar badiy asarda muallif tilining badiyligini, ifodaviyligini, milliyligini, estetik ta’sir kuchini oshiradi. Xalq ruhiyati bilan chambarchas bog`langan bu birliklar badiy asarni hayotiyligini, badiyligini va ta’sirchanligini kuchaytiradi va o`quvchida qiziqish uyg`otadi.

Tilshunos olima G. Mahmudova frazeologizmlarning mohiyatini quyidagicha ifodalarydi: “Frazeologik birliklar xalq tafakkurining mahsuli bo‘lib, ular badiy matnning mazmuniy va uslubiy qatlamlarini shakllantirishda muhim vosita sanaladi” (Mahmudova G., 2010, 47-bet).

Frazeologik birliklarning badiy nutqdagi o‘rni

Frazeologik birliklar – turg‘un iboralar sifatida xalq tafakkuri va nutq madaniyatining mahsuli bo‘lib, badiy asarda muhim vazifalarni bajaradi:

- 1. Obraz yaratish vositasi  
Misol: A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” asarida “Yel kabi o’tib ketdi” iborasi voqea tezligini obrazli ifodalaydi.
- 2. Personaj psixologiyasini ochish  
Misol: Cho’lpon asarlarida “Tilini tishladi”, “Ko’ngli siqildi”, “Boshi berk ko‘cha” kabi iboralar qahramon ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi.
- O’lmas Umarbekov: Unga yetib olganimda vujudimni sevinch qoplagan,kutilmagan uchrashuvdan”boshim osmonga yetgan edi”.
- 3. Milliy ruh ifodasi  
Har bir xalq tilida o‘ziga xos frazeologik birliklar mavjud. Ulardan foydalanish matnga milliy ruh baxsh etadi.Misol: “Bir yoqadan bosh chiqarib”, ”Bir mayizni qirqqa bo’lmoq”
- 4. Qahramonlar o`rtasidagi suhbatni jonlantirish  
Jonli xalq tiliga yaqin iboralar qahramonlar o`rtasidagi suhbatlarni tabiiy qiladi.  
Misol: ”Ko’ngli tog‘dek ko‘tarildi”, ”Ko‘zi suzildi”, ”Boshi osmonga yetdi”, ”Tepa sochi tikka bo‘ldi”, ”Xamirdan qil sug‘urganday”.

#### Adabiy misollar tahlili

##### 1. Abdulla Qodiriy – “O’tkan kunlar”

“Yusufbek hoji boshi berk ko‘chaga kirganini endi tushundi.” – bu yerda “boshi berk ko‘cha” frazeologizmi umidsizlik, chorasisizlik holatini anglatadi.

##### 2. Oybek – “Navoiy”

“Bu gapni eshitib Alisherning yuragi orqasiga tortdi.” – Qahramonning hayrat va vahima holatini frazeologik ifoda orqali berilgan.

##### 3. Asqad Muxtor – “Chinor”

“O‘qituvchi tilini tishlab qoldi.” – Frazeologizm qahramonning noqulay vaziyatdagi o‘zini tutish harakatini bildiradi.

##### 4.Odil Yoqubov –“Muqaddas”

“Bir lahza shu ahvolda unga qarashga jur`at etolmay ikkilanib o‘tirdim, keyin sekin” ko‘z qirimni tashladim”.- frazeologizm qahramonning zimdan jur`atsizlarcha boqishini ifodalayapti.

##### 5.Odil Yoqubov-“Muqaddas”

“Bir minutga ularning hammasi ko‘zimga mehnatdan qochib yurgan erkatoylarga o`xshab ko`rindi-yu,g`azabim qo`zg`adi,lekin shu payt xayolimga:”O‘zing-chi,o‘zing nima qilib yuribsan?”degan fikr kelib, “ko‘nglim g`ash bo‘ldi”- Frazeologizm qahramonning o`z vijdon amriga quloq solishi ma`nosi ifodalangan.

##### 6. Odil Yoqubov-“Muqaddas”

“Odatda imtihonga birinchi bo`lib kirish,kuzda sovuq suvga sho`ng`ishdan ham qiyin tuyuladi,hatto o`z bilimiga ishongan kishi ham nimadandir hadiksirab,”eti junjikib turadi” –Frazeologizm qahramonning hadiksirash,qo`rquv holatini ifodalagan.

#### 7.Odil Yoqubov-“Muqaddas”

“Muqaddasning muloyim ovozini eshitar edim.Quloqlarim tagida uning :”Voy,men sizni yiqilib qolmasangiz deb shunday qo`rqdim,shunday qo`rqdimki!”degan so`zlari tinimsiz takrorlanar,ajib bir musiqa kabi ruhimni erkalar,xayolimni “ko`klarga ko`tarardi”. Frazeologizm qahramonning sevgidan,ishqdan masrur va xursandchilik holatini ifodalayapti.

#### 8.Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”

“Bas,Mohlaroyim o`z tirikligida maxdumning “boshini ikki qilmasa”o`zidan so`ng uning uylana olishi amri mahol .”-Frazeologizm qahramonning turmush qurishi,ulanish ma`nosini ifoqalayapti.

### Xulosa

Frazeologik birliklar badiiy adabiyotning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytiradi asar mazmunining boyishiga, personaj xarakterining chuqurlashuviga, tilning xalqchil va hayotiy tus olishiga xizmat qiladi. Ular yordamida adib obrazlarni jonlantiradi, matnga ekspressivlik, milliy ruh, emotsiyonal teranlik baxsh etadi. Frazeologizmlarning muvaffaqiyatli qo`llanilishi asarning estetik ta’sir kuchini oshiradi. Har bir frazeologizm yozuvchining badiiy mahoratini, til boyligini ko`rsatadi. Shu bois, badiiy asar tahlilida frazeologik birliklarga e’tibor qaratish zarur. Shunday qilib, frazeologik birliklar badiiy matnning ichki va tashqi tuzilmasiga uyg‘unlik bilan singib, uni jonli va ta’sirchan qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Sirojiddinov (2001). O‘zbek tilining frazeologiyasi. Toshkent: Fan.
2. M.Karimov (2010). Adabiy til uslubi. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Mahmudova G. (2010). Hozirgi o‘zbek adabiy tilining frazeologiyasi. Toshkent: Fan
4. A.Qodiriy (1992). O‘tkan kunlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.
5. D.Zokirova. (2019). Badiiy matnda frazeologizmlarning stilistik vazifalari. Til va adabiyot ta’limi, 3(67), 34–41.
6. A.Qodiriy (2019).”Mehrobdan chayon” Toshkent.Yangi nashr.
7. O.Yoqubov.(2023)”Muqaddas”. “Nurli dunyo”nashriyoti.